Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики" 886 Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge" 889 Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi 892 D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 895 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari 898 Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish 901 Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari 905 Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture 908 Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
Salixova Muhayyo Shakirovna	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna	
Autizm spektorini buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
U. M. Utbasarova	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
Алибекова Лайло Рахмановна	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
Raimova Nasiba Abdreimovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
Bahronova Maftuna Farhadovna	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li	
O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
Abdushukurova Mushtariy	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
Altibayeva Gulbaxor Majitovna	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
Arabova Gulnura Yuzboy qizi	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process.....	1014
	Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
	The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....	1019
	Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
	Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati.....	1025
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi	
	Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....	1028
	Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1031
	Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.....	1034
	Iminova Z. B.	
	Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....	1038
	Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
	O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1044
	Kalmuratovna Venera Sultanova	
	Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari.....	1049
	Kamola Abdullayeva	
	O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....	1052
	Karimov Orif Obloqul o'g'li	
	Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....	1055
	Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
	Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....	1060
	Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....	1063
	Makulov Shuxratjon Zokirovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....	1067
	Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....	1072
	Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....	1075
	Mansurova Umida Mansur qizi	
	Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....	1081
	Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
	Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....	1084
	Murodov Nozimjon Olimjonovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....	1088
	Nafasova Jamila Turg'un qizi	
	Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....	1093
	Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....	1097
	Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
	Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
	O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
	Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
	Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	1108
	Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
	Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
	Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
<i>Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i>	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
<i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i>	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
<i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
<i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i>	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
<i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
<i>Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi</i>	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
<i>Roziqova Malika Olimovna</i>	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
<i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i>	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
<i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i>	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
<i>T. Seydemetov</i>	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
<i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i>	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i>	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
<i>Utambetova Arzayim</i>	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
<i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i>	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
<i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i>	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
<i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i>	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis.....	1189
<i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i>	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
<i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i>	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
<i>Пак Светлана Викторовна</i>	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
<i>Сагиндилов Алишер Алеутдинович</i>	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
<i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i>	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
<i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i>	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
<i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i>	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
<i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i>	

TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH

T. Seydemetov

Assistent o'qituvchi Ajiniyoz nomidagi
Nukus davlat pedagogika instituti
(Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Ta'lim xizmatlari samaradorligi va qulayligiga ta'sir ko'rsatuvchi byudjetlashtirish modellari qiyosiy baholangan, shuningdek, moliyaviy ta'minotning takomillashuviga doir ilmiy yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, moliyalashtirish, kadrlar tayyorlash, byudjet, pullik ta'lim xizmati.

Abstract: This article examines modern mechanisms of financing the education system. Various budgeting models and their impact on the efficiency and accessibility of educational services are comparatively evaluated. The study highlights current approaches to improving financial support in higher education institutions.

Key words: education system, financing, personnel training, budget, paid educational services.

Аннотация: В данной статье проанализированы современные механизмы финансирования системы образования. Проведена сравнительная оценка моделей бюджетирования и их влияния на эффективность и доступность образовательных услуг. Освещены научные подходы к совершенствованию финансового обеспечения учебных заведений.

Ключевые слова: система образования, финансирование, подготовка кадров, бюджет, платные образовательные услуги.

KIRISH

Ta'lim tizimini moliyalashtirish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Chunki mamlakatning raqobatbardoshligi, inson kapitalining rivojlanish darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, avvalo, ta'limning sifatiga bevosita bog'liq. Davlat tomonidan ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag'lar miqdori, ularning samarali taqsimlanishi va boshqarilishi jamiyatning kelajakdagi intellektual va innovatsion salohiyatini belgilab beradi. Shu sababli so'nggi yillarda ta'limni moliyalashtirish mexanizmlarini modernizatsiya qilish, byudjet va byudjetdan tashqari manbalar ulushini oshirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyaviy ta'minlashning an'anaviy davlat byudjeti manbalariga tayanish bilan cheklanib qolish samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Shu bois ta'lim muassasalari uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmlari jadal rivojlanmoqda. Xususan, pullik ta'lim xizmatlari, shartnoma asosida mutaxassislar tayyorlash, xo'jalik shartnomalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, xalqaro grantlar va homiylik mablag'lari hisobiga qo'shimcha moliyaviy manbalar yaratilmoqda. Bu esa ta'lim tashkilotlarining iqtisodiy mustaqilligini oshirib, ularni iqtisodiy faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ta'limning bepulligi to'g'risidagi ijtimoiy qarashlar va aholining daromad darajasi farqlari pullik ta'lim xizmatlariga nisbatan turlicha munosabatni keltirib chiqarmoqda. Mazkur holat ta'lim xizmatlarini taklif etuvchi tashkilotlar oldiga moliyaviy boshqaruvni yanada takomillashtirish, xizmatlar narxi va sifatining ijtimoiy adolat tamoyillariga mos kelishini ta'minlash vazifasini qo'yimoqda. Bundan tashqari, oliy ta'limning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ilg'or davlatlar tajribasidan kelib chiqib, byudjet tizimining ochiqligi, samaradorligi va natijadorligi doimiy ravishda baholanib borilmoqda.

Demak, ta'lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy jarayon, balki keng ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan kompleks boshqaruv chorasidir. Ushbu maqola ta'lim tizimini moli-



yalashtirishning amaldagi mexanizmlari, byudjetlashtirish tamoyillari va qo'shimcha moliyaviy manbalarni shakllantirishga doir ilmiy yondashuvlarni tahlil qilishga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimini moliyalashtirish masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy ishlari ta'limning iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan. Djuraev R.X. va Turg'unov S.T. o'z tadqiqotlarida ta'limni boshqarish tizimida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi. A.P. Pankruxina ta'limni moliyalashtirishda boshqaruv nazariyasi va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka urg'u beradi. Banslova tomonidan xalqaro tajribaga tayanib olib borilgan tadqiqotlarda esa grantlar, shartnoma asosidagi ta'lim va xususiy sarmoya ta'limni barqaror moliyalashtirishning muhim yo'nalishlari sifatida ko'rsatib o'tiladi. Ushbu ilmiy qarashlar O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida byudjetdan tashqari mablag'lar ulushini oshirish va moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarbligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ta'lim tizimini moliyalashtirishning amaldagi holatini o'rganish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika ma'lumotlari hamda ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarining fikrlari tahlil qilindi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisobotlari, ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar ochiq ma'lumotlar bazalaridan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida qayta ishlanib, ta'limni moliyalashtirishning byudjet va byudjetdan tashqari manbalari samaradorligi baholandi. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarida moliyaviy boshqaruv mexanizmlarining qo'llanish holati amaliy misollar orqali taxlil etildi. Natijalar asosida mavjud muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari aniqlanib, ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim tizimini moliyalashtirish mazmuni

Ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'larining shakllanishi. Ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari faoliyatini boshqarish.

Kadrlar tayyorlashning yangi modeli, bozor iqtisodiyotiga o'tish ta'limning moliyaviy-iqtisodiy tartiblarini shakllantirishda, xususan, byudjetdan tashqari mablag'lar bilan to'ldirishda jiddiy o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda.

Davlat ta'lim dasturlari va standartlari doirasida o'qitish xizmati ko'rsatish, birinchi navbatda ta'lim muassasasiga to'lov asosida qabul qilish, mulkchilikning turli shaklidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan shartnoma asosida mutaxassislar tayyorlash oliy maktabga moliyaviy tushumlar keladigan zarur manbalardir.

Shartnoma bo'yicha mutaxassis tayyorlash ta'lim tashkilotining korxonalar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishning ko'plab imkoniyat shakllaridan biridir. Ayni paytda ta'limni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish, ko'p bo'g'inli mutaxassislar tayyorlashga o'tish, ta'lim shakllari bosqichini moliyalashtirishga yangicha yondashuv ishlab chiqilgan.

Ta'lim uchun ta'lim oluvchilarning o'zi mablag' to'lashi ta'lim muassasasini moliyalashtirishning ikkinchi manbai hisoblanadi. Ta'lim muassasalari to'lovining turli shakllarini amalga oshirishni takomillashtirish masalasini hal etishda ta'lim tashkiloti O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RB-637-sonli¹ Qonunining 4-moddasiga asoslanadi. Bunda ikki muhim holatni hisobga olgan holda fuqarolarning ta'lim olish huquqi belgilanadi:

- aholining asosiy qismining daromad darajasi oliy ta'lim olish bo'yicha xarajatlarni ko'tara olmasligi;
- ta'limning bepulligi bo'yicha yuzaga kelgan ijtimoiy ruhiyat ta'lim xizmatiga mablag' to'lash zarurligiga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirmoqda.

Oliy maktab kadrlar salohiyatini saqlashga sezilarli hissa qo'shayotgan tijorat tuzilmalarisiz ta'lim shaklining to'lov-kontrakt asosidagi muammosini hal etib bo'lmaydi. Ularning moliyaviy yordami ayrim hollarda ancha salmoqli bo'lmoqda. O'qituvchilar, talabalar va doktorantlarni tijorat korxonalarida faoliyatida ishtirok etishga jalb etish o'quv jarayonini amaldagi iqtisodiy amaliyot bilan uyg'unlashtirishga sharoit yaratadi, o'qituvchilar tarkibining yuqori ilmiy tajriba darajasiga ega bo'lishi va uni saqlab qolishiga ko'maklashadi. Tijorat korxonalaridan tushumlar (ijara haqi, foydaning bir qismini ta'lim muassasasini rivojlantirish fondiga o'tkazish) ayrim hollarda ta'lim muassasasi moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda zarur manba hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RB-637-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

Tijorat tuzilmalari faoliyatidan yuqori foyda olish uchun, kasbiy va boshqa tafovutlarga qaramay, ta'lim tashkiloti va uning tijorat tuzilmasining amalda faoliyat ko'rsatish modeli tuzilgan. Bu modelda ikki variant ko'zda tutiladi:

- birinchisi – tijorat tuzilmalari ta'lim tashkilotining bo'limlari hisoblanadi;
- ikkinchisi – tijorat tuzilmalari hisoblanmaydi.

Har ikki variantda ta'lim muassasalari va tijorat tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlar butun majmui aniq belgilanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat oliy maktabni moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Xalqaro aloqalarning markazlashgan boshqaruvdan to'liq mustaqillikka o'tishi ta'lim muassasalarining xalqaro aloqalari faollashuviga olib keldi. Buning obyekti esa ta'lim jarayonida tadqiqot olib borish faoliyati, axborot xizmati ko'rsatish hisoblanadi. Bu ilmiy-texnik shartnomalar, respublika ta'lim muassasalari bilan xorijiy ta'lim muassasalari va firmalar o'rtasida o'zaro manfaatli ishbilarmonlik bitimlari tuzilishining ko'payishiga olib keladi.

Xorijiy davlatlar uchun mutaxassislar tayyorlash byudjetdan tashqari tushumlarning muhim manbalaridan biri hisoblanadi (davlat yo'li bilan respublika ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan va o'qishni tamomlayotgan talaba bundan mustasno, yangi qabul faqat to'lov asosida bo'ladi). Shu munosabat bilan xorijiy ta'lim oluvchilarni tayyorlashdan tushadigan mablag' miqdori belgilanadi.

Xo'jalik shartnomalari tuzish yo'li bilan sanoat tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ilmiy-texnikaviy sheriklik ta'lim muassasalarini byudjetdan tashqari moliyalashtirishning an'anaviy va zarur manbalaridan biridir.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, pullik o'qitish xizmati, noshirlik faoliyati va boshqa yo'nalishlar moliyalashtirishning byudjetdan tashqari an'anaviy manbalari hisoblanadi. Shunday qilib, ta'lim tashkilotining qo'shimcha byudjetdan tashqari moliyalashtirishni qamrab olish faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim dasturlari va standartlari doirasidagi o'qitish xizmati (mulkning turli huquqiy-tashkiliy shaklidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan shartnoma bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, kontrakt asosida xorijiy o'qituvchilarni tayyorlash);
- davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar;
- shartnoma asosida mutaxassis tayyorlash;
- xo'jalik shartnomalarini tuzish;
- pullik xizmatlar;
- tahririyat-nashriyot;
- ishlab chiqarish bilan shug'ullanish;
- grantlar.

Oliy ta'lim tizimini moliyaviy ta'minlash yo'llari:

- qo'shimcha ta'lim dasturlari, maxsus kurslar va tayyorlov guruhlari;
- kadrlar bilimini oshirish va ularni qayta tayyorlashning turli shakllari;
- tayyorlov kurslari;
- konsultatsiya xizmati (davlat dasturlari va standartlari doirasida);
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-ishlab chiqarish faoliyati (korxonalar bilan hamkorlikdagi faoliyat, ortiqcha ilmiy uskunalarni sotish);
- tadbirkorlik faoliyati (ijara, xarid, tovarlarni sotish, vositachilik xizmati, boshqa muassasalar faoliyatida ulush bilan ishtirok etish, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish va ulardan daromad olish, foyda keltiradigan boshqa operatsiyalar);
- tashqi iqtisodiy faoliyat (ish bilan bog'liq xizmatlar, hamkorlikdagi ilmiy faoliyat);
- nashriyot faoliyati;
- axborot va xo'jalik faoliyati (kutubxonaning nusxa ko'chirish, adabiyotlarni tanlash xizmati, kitobni yo'qotganlik va uzoq muddat foydalanish uchun xarajatlar);
- o'qituvchilar, xodimlar va talabalarning turli xo'jalik xizmatlari;



- ta'lim muassasasi turar-joy fondi va yotoqxonalardan xizmat ko'rsatish);
- korxonalar va tashkilotlarning xayriya ulushlari, shu jumladan xayriya asosida aniq moliyaviy va moddiy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi homiylik kengashlari, bitiruvchilar uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlarining xayriya fondlari.

Davlat ta'lim tashkiloti byudjet tashkiloti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda oliy ma'lumotli mutaxassislar malakasini oshirishni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. U holda notijorat xususiyatidagi ijtimoiy-moddiy funktsiya bajariladi, davlat byudjetidan to'liq yoki qisman, shu bilan birga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

Ta'lim tashkilotini byudjetdan mablag' bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli² qarori bilan tartibga solinadi. Talabalarni qabul qilish granti va moddiy-texnik baza hajmi ta'lim muassasasiga byudjetdan mablag' ajratish uchun asos bo'ladi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi har oyda ta'lim muassasasiga zarur byudjet mablag'ini ajratadi.

Ta'lim tashkilotining byudjet tizimi quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

- ichki moliya tizimining uslubiy birligi;
- daromad va xarajatlar hisobi to'liqligi;
- ochiqlik;
- byudjet kafolatining ma'muriyat darajalari bo'yicha taqsimlanishi.

Ta'lim tashkilotining byudjeti to'g'risidagi normativ hujjatda uning shakllanish prinsipi, daromadni belgilash va xarajatlarni tasdiqlash tartibi, shu jumladan byudjet tartibiga rioya qilish, ta'lim muassasasi faoliyatida byudjet qoidalari buzilganligi uchun javobgarlikka tortish shartlari belgilab qo'yiladi.

Byudjet – ta'lim muassasasi ichki qoidalari bilan mustahkamlangan, ta'lim muassasasi pul mablag'larining paydo bo'lishi va sarflanishi shakli. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalari barcha byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar kabi smeta asosida moliyalashtiriladi. Mazkur qo'llanma jahon tajribasidagi ilg'or amaliyotlarga asoslangan holda "ta'lim muassasasi byudjeti" tushunchasi qo'llanilgani bilan, ushbu tushuncha bugungi kunda mamlakatimizdagi "oliy ta'lim muassasasi smetasi" tushunchasiga mos keladi.

Byudjet tizimining uch bosqichi farqlanadi:

- umumta'lim muassasasi;
- alohida bo'lim;
- alohida ish, alohida tadbir, alohida obyekt.

Ta'lim tashkilotini moliyaviy ta'minlash uchun mablag' davlat tuzilmalaridan (davlat byudjetidan), ta'limning kontrakt to'lov-shartnoma shaklidan, tovarlar ishlab chiqarish va sotishdan (ish, xizmat), korxonalar va xususiy shaxslardagi (byudjetdan tashqari) mablag'lardan kelishi mumkin.

Byudjet tasnifi daromad va xarajat elementlari guruhidan davlat tizimi bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi byudjet tizimi huquq asosining yagonaligi, tasniflashning yagona tizimidan foydalanish, hujjatlarning yagona hisobotlar va loyihalar shakli hamda zarur statistik hisobot taqdim etilishi bilan ta'minlanadi.

Ta'lim muassasasi daromatlari – ma'muriyat yoki alohida bo'lim rahbari ixtiyoriga kelib tushadigan mablag'.

Ta'lim muassasasi xarajatlari – ta'lim muassasasi bo'linmalarining ehtiyojlarini qondirishga sarflanadigan mablag'.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Ta'limning davlat tomonidan moliyalashtirilishi ijtimoiy himoyaning muhim tarkibiy qismi sifatida aholi uchun ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, byudjet imkoniyatlarining chegaralanganligi sharoitida ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarni shakllantirish zarurati kuchayib bormoqda. Bu jarayonni amalga oshirishda ta'lim muassasalarining iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy boshqaruv samaradorligi yuqori ahamiyat kasb etadi.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-319286>

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda pullik ta'lim xizmatlari, shart-noma asosida mutaxassislar tayyorlash, xalqaro grantlar va hamkorlik loyihalari katta moliyaviy salohiyatga ega. Tijorat tuzilmalari, sanoat korxonalari va davlat ta'lim tashkilotlari o'rtasida ilmiy va amaliy sheriklikni kuchaytirish orqali ta'lim jarayonining innovatsion rivojlanishiga erishish mumkin. Xususan, korxonalarining ta'lim muassasalariga investitsiya kiritishi, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy laboratoriya va texnika vositalari bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik natijasida talabalar amaliyotga yo'naltirilgan holda tayyorlanadi va mehnat bozorining talablariga yuqori darajada moslashadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ta'lim tizimini moliyalashtirishda ochiqlik va samaradorlikning ta'minlanishi muhim omil ekanini ko'rsatdi. Byudjet mablag'laridan foydalanishda natijadorlikni baholash tizimini takomillashtirish, xarajatlar tuzilmasini aniq rejalashtirish, har bir moliyaviy operatsiyaning shaffofligi ta'lim tashkilotlariga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi. Bu esa ta'lim sohasiga xususiy kapital, homiylik va jamg'armalar mablag'larini kengroq jalb qilishga yordam beradi. Moliyaviy boshqaruvda raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish, elektron byudjet tizimlarini keng qo'llash va xarajatlar ustidan monitoringni avtomatlashtirish, korrupsion xavflarni kamaytiradi va maqsadli sarf-xarajatlarni ta'minlaydi.

Ta'lim tizimining barqaror moliyaviy rivoji uchun xalqaro tajriba ham muhim o'rin tutadi. Rivojlangan davlatlarda ta'limga investitsiya kiritish yuqori daromadli iqtisodiy model sifatida qaraladi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish orqali qo'shimcha daromad olishi keng qo'llaniladi. O'zbekistonda ham ilmiy ishlanmalarni bozorga tatbiq etish va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali innovatsion iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari kengaymoqda.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, ularning o'z xarajatlarini qoplash va qo'shimcha resurslar yaratish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.
2. Pullik ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, narxlash siyosatini ijtimoiy adolat tamoyillari asosida shakllantirish, aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun qo'shimcha imtiyozlar va grant dasturlarini kengaytirish lozim.
3. Moliya boshqaruvida ochiqlik tamoyillarini kuchaytirish, ta'lim muassasalari tomonidan moliyaviy hisobotlarni jamoatchilikka muntazam taqdim etish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq.
4. Korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, dual ta'lim elementlarini keng joriy etish, ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyani rivojlantirish lozim.
5. Xalqaro grantlar, homiylik yordamlari va investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini soddalashtirish, xalqaro miqyosdagi hamkorlik loyihalarida ishtirok etish salohiyatini oshirish zarur.
6. Ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha moliyaviy manbalar yaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi. Davlat, xususiy sektor va jamiyat o'rtasida moliyaviy hamkorlikka asoslangan barqaror tizim shakllantirilsa, O'zbekiston ta'lim tizimi global raqobat maydonida munosib o'rin egallaydi va milliy taraqqiyotning muhim drayveri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – Toshkent: Voris nashriyoti, 2006.
2. Pankruxina A.P. Management theory: Textbook. – Moskva: RAGS, 2005. – 85–86-betlar.
3. Banslova V.B. Международный образовательный проект по программе TACIS: "Specialized Course: Small Business Management". – FRG, 1995.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.